



PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERI USULIDA TALABALARGA KIMYO FANINI O'QITISHDA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Qurbonova M.E.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Abdulaxatova M.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Tayanch so'zlar: talaba, kimyoviy bilim, o'quv faoliyati, innovatsion klaster, pedagog kadrlar, kompyuter texnologiyalari, intellektual maydon.

Ключевые слова: студент, химические знания, образовательная деятельность, инновационный кластер, педагогические кадры, компьютерные технологии, интеллектуальное поле.

Key words: student, chemical knowledge, educational activity, innovative cluster, pedagogical personnel, computer technologies, intellectual field.

Резюме:

Ushbu maqolada talabalarga kimyo fanini o'qitishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri usulida o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish masalalari xususida ma'lumoylar berilgan.

Резюме:

В данной статье представлена информация по вопросам организации и совершенствования учебной деятельности при преподавании химии студентам с использованием инновационного кластерного метода педагогического образования.

Summary:

This article provides information on the issues of organizing and improving educational activities in the teaching of chemistry to students using the innovative cluster method of pedagogical education.

Klaster tizimida ta'lim ishlanmalari yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi.

Ta'limda zamonaviy klaster tizimi, shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo'lishiga qaratilgan bo'lib, uning bog'liqligi – bog'cha, maktab, litsey, kolledj,



oliy o'quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta'lim zanjirini bir-biriga bog'langandir.

Shuning uchun ham yurtboshimizning hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizni "Klaster usuli"da rivojlantirish bo'yicha qo'ygan maqsad va rejasiga asoslangan holda, huddi shu usul bilan OTM va boshqa o'quv yurtlarida "Raqobatbardosh kadr tayyorlash klasteri" tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi.

Ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasi chuqurlashadi, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga qulay sharoit yaratadi.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan sub'ektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir sub'ekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish masalasini, X.T.Omonov, kimyo ta'limining falsafiy-pedagogik asoslari va uni takomillashtirish, Sh.A.Mamajonov, oliy o'quv yurtlari "Kimyo o'qitish metodikasi" kursining tuzilishi va mazmuni, M.B.Ajjeva, kimyo fanini o'qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirish, E.U.Eshchanov organik kimyo fanini o'qishda mustaqil ishlardan foydalanish metodlarini ishlab chiqqan. Anvarova Nodira Alievna. Kasb-xunar kollejlari kime darslarini kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi. Islamova M.Sh. Umumta'lim maktablari o'quvchilarini kimyoviy bilimlar asosida kasbiy dunyoqarashini shakllantirish metodikasini ishlab chiqqan

Klaster tizimi sub'ektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi.

Zero, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori

fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish imkonini beradi, shu sababli ushbu tadqiqot ishi dolzarb nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Klaster yondashuvi uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Binobarin, klaster yondashuvining asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Klaster yondashuvida mavjud intellektual resurslarni pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolari atrofida integratsiyalash, pedagogik sohada oqilona vorisiylik tamoyilini yo'lga qo'yish, manfaatdor shaxslarning qoniqish darajasi haqida tezkor fikr-mulohazalar bilan talabalarni amaliy yo'naltirilgan holda tayyorlash bilan bog'liq muhim masalalar atrofida faoliyat olib boradi [27].

Respublikamizda ta'limda klaster yondashuvining sub'ektlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- barcha turdagi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari talabalar, magistrantlar va doktorantlarining ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan, pedagogik amaliyotlar olib boriladigan, o'quv va tajriba-eksperimental baza vazifasini o'tashi;

- barcha turdagi maktabgacha, umumiy o'rta, professional ta'lim, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari, pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarining o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi;



- ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlarining pedagogik faoliyatga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan va uning rivojlanish tamoyillarini belgilaydigan o'zaro ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishi;

- pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari ta'lim klasteri modelining sub'ektlari bo'lishi kabilar.

Umuman olganda, pedagogik ta'lim klasteri pedagogika sohasiga iqtisodiy modellarni tatbiq qilish natijasida samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Uni amalga oshirish mexanizmlari, yo'nalishlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarini ilmiy asosda tavsiflash ayni paytda soha mutaxassislari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Pedagogik ta'lim klasterini muvofaqqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

«Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri» mavzusiga ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tortish;

Pedagogik ta'limni klasterlashtirishning strategik yo'nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqish;

Mavjud me'yoriy hujjatlarga pedagogik ta'limni klasterlashtirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Ta'lim klasterlari borasida ilg'or xorijiy tajribalarni ijodiy o'zlashtirish;

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini amaliyotga tatbiq etishning mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ushbu muammolarni yechish pedagogik ta'lim tizimida integratsiyani ta'minlash va samaradorlikni oshirishga nisbatan innovatsion klaster yondashuvini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
3. Omonov Xojiqul Tovbovich. Kimyo ta'limining falsafiy-pedagogik asoslari va uni takomillashtirish masalalari// ped. fan. nomz. ... diss. avtoreferati. – T.: 1994. - 32 b.
4. Qurbonova M.E. Organik kimyo darslarida pedagogik metodlardan foydalanishni o'rgatish). Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio' ilmiy-metodikaliq jurnal N6/3 // N6/3 Nykys-2022./12/01 10-12-B. (13.00.00; №23).